

KORRUPSIYA – TARAQQIYOT KUSHANDASI**Adhamqulov Egamnazar Muhammadi o'g'li***Jizzax davlat pedagogika universiteti**Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:03.07.2025**Revised: 04.07.2025**Accepted:05.07.2025*

Maqolada demokratik taraqqiyotning kushandasiga aylangan korrupsion holatlar va ularni hal qilishdagi amalga oshirilgan ishlar haqida.

KALIT SO'ZLAR:

*Demokratiya,
korrupsiya, qonun,
jinoyat kodeksi,
javobgarlik tushunchasi
va boshqalar..*

Demokratik qadriyatlar rivojlanib borayotgan bir vaqtda jamiyatda poraxo'rlik, mansab mavqeini suiistemol qilish, o'z vakolatlaridan noqonuniy foydalanish bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishi davlat hokimiyatining obrosizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimlariga putur yetishi va hokimiyatga nisbatan ishonchsizlik va norozilik kayfiyatining paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Korrupsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning bir turi. Biz uni faqatgina davlat xizmatchilari o'z shaxsiy manfaatlarini o'ylab boylik ortirish uchun qiladigan qonunga xilof harakatlarini tushinamiz. Lekin davlat tashkilotlarida ishlamaydigan fuqarolar ham huquqiy munosabatlarda pora bilan emas o'zaro kelishuv orqali jinoyatlar sodir etmoqda. Hozirgi kunda hayotimizda kuzatilayotgan eng yomon illatlar korrupsion holatlaraga borib taqalmoqda. Biror joyga ishga kirmoqchi bo'lsangiz eng birinchi navbatda cho'ntagingizga e'tibor beriladi.

Tariximizga nazar soladigan bo'lsak sharq mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida fuqarolik jamiyatini qurishga to'g'onoq bo'ladigan muommalardan biri bu – "Poraxorlik" deb qayd etgan. Arab xalifaligi davriga e'tibor beradigan X asr o'rtalariga kelib amaldorlar biror davlat lavozimiga tayinlanish uchun yuqori tabaqa vazirlarga pora berishni odat tusiga kiritganligini ko'rshimiz mumkin. Muqaddas dinimizning asosiy manbaasi Quroni karimda ham korrupsiya taqiqlangan va qoralangan. Baqara surasining 118-oyatida "Bir – birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang" deb keltirilgan.

Butunjahom miqyosida 9-dekabr "Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" sifatida, qolaversa yurtimizda 8-dekabr konsititutsiya kuni sifatida nishonlanishi bejizga emas. Konsititutsiya va Jinoyat kodeksining bir necha moddalarida korrupsion holatlar va ular uchun jinoiy javobgarlikning muqarrarliligi keltirib o'tilgan. Birgina Jinoyat kodeksining 211- moddasida: Pora berish ya'ni davlat organi ishtirokida tashkilot va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining mansabdor shaxsiga o'z mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki lozim bo'lmagan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarish yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bilib turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliliklar yoki uni milkiy bartaraf etish. Pora berish a) takroran, redsidivisit yoki Jinoyat kodeksining 212- moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan b) ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa. Pora berish a) juda ko'p miqdorda b) uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, shaxsga nisabatan pora so'rab tovlamachilik qilgan bo'lsa va ushbu shaxs jinoyat holat sodir etgandan keyin bu haqda 30 sutka ichida o'z ixtiyori bilan arz qilsa, jinoyatni ochishda faol ishtirok etsa javobgarlikdan ozod etiladi. Jinoyat kodeksining 210 - moddasida pora olish va berish 15 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan belgilangan.

Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida 2014-yil "Davlat organlari va ularning faolyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi, "O'zbekiston Respublikasi qonun-qoidalarini amalga oshirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo kommissiyasi tuzildi. Qonun asosida 2017 -2018 –yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturi tasdiqlandi. Dastur asosida respublika miqyosida samarali ish faoliyati amalga oshirilmoqda. 2017-yil 4-yanvardan boshlab korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun loyihasi qonuniy

kuchga kirdi. Loyiha asosida Jinoyat va Jinoyat –protsessual kodekslaarida korrupsiya sodir etgan yoki unda qatnashgan shaxslarga nisbatan tegishli jazo choralari belgilandi. Shuningdek ” Budjet va Bojxona” kodekslari, ”Huquqbuzarlik profilaktikasi”, ”Ijtimoiy sheriklik”, ”Tezkor qidiruv” va ”Ichki ishlar organlari” to’g’risidagi yangi taxrirdagi qonunlar qabul qilindi. Bundan tashqari ohirgi yillarda davlat idoralari va davlat xizmati bilan bog’liq holatlarda korrupsiyaning oldini olishda katta rol o’ynayotgan va keng qo’llanilayotgan ”Elektron hukumat” dasturining joriy etilishi bu tizimga yangicha mazmun berdi.

So’nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylanmoqda. Bu borada yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar ko’lami kengaymoqda. Jumladan 1) Huquqiy asoslarning mustahkamlanishi a) 2020- yilda prezident farmoni bilan ”Korrupsiyaga qaarshi kurashish agentligi”ni tashkil qilish to’g’risidagi qonunning qabul qilinishi b) 2023-yilda ”Korrupsiyaviy xavflarni baholash “ tizimining joriy qilinishi va buning natijasida davlat organlari faoliyatidagi potensial korrupsiya holatlarining aniqlanganligi 2) Jamoatchilik nazoratining kuchaytirilishi a) davlat xaridlari, tenderlar va subsidiyalar ajratish jarayoning ochiq tizimlar orqali amalga oshirilayotganligi b) fuqarolarning ” Open Data” va ”E-Anticorruption” kabi elektron platformalari orqali davlat organlari faolyatini kuzatish imkoniyatining yaratilganligi 3) Jinoyat ishlari bo’yicha qat’iy choralarning joriy etilganligi a) Sudlar qarorlarining ochiq e’lon qilinayotganligi va jamoatchilik nazoratining kuchaytirilayotganligi b) yuqori mansabdorlarning pora olayotganligi yoki mansab vakolatini suiistemol qilayotganligining natijasida javobgarlikga tortilayotganligi 4) Profilaktika ishlarining yuqori darajada amalga oshirilayotganligi a) davlat xizmatchilari uchun doimiy tarzda etik me’yorlarning va mavzuga oid treninglarning o’tkazilib borilishi b) maktablar va oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy va ma’rifiy tadbirlar o’tkazilayotganligi keltirishimiz mumkin. Davlatimiz ichki islohatlar bilan bir qatorda xorijiy tajribalarni o’rganish, xalqaro hamkorlik masalalariga ham jiddiy e’tibor qaratmoqda. BMT ning 2008- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasiga qo’shilishi, Singapur tajribasi asosida davlat xizmatlarini ”raqamlashtirish” masalasiga e’tibor berayotganligi ”Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali”, ”my.gov.uz” orqali xizmatlarning onlaym shaklda ko’rsatilishi inson omilini kamaytirib, korrupsion xavfning oldi olindi, Janubiy Koreya tajribasidan davlat xizmatchilari faolyatini ”monitoring qilish “ tizimining amalyotga tadbqiq etilayotganligi, Norvegiya tajribasidan davlat o’z faolyatida ochiqlik siyosatini amalga oshirish tizimiga, jamoatchilik eshituvlariga o’rin ajratayotganligini yurtimizda ham joriy etayotganligi maqsadga muvofiq bo’lmoqda.

Davlat tomonidan qancha qonunlar qabul qilinsa ham, qonunlar dasturlari ishlab chiqilsa ham, rivojlangan davlatlarning boy tajribalari o'rganilgan taqdirda ham har bir millat fuqarolarida shu yurt rivoji uchun qayg'urish hissi, huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarini shakllantirmasa ko'zlangan natijalarga erishib bo'lmaydi. Bu kabi dolzarb masalalarning yechimi fuqorolik jamiyatining shakllanishida, kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tishda muhim omil hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2021.
2. “Davlat organlari va ular faoliyatining ochiqqligi to'g'risida”gi Qonun. Qabul qilingan sana: 05.05.2021. – “Xalq so'zi” gazetasi, 2021-yil 6-may soni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tashkil etish to'g'risida”gi Farmoni. 2020-yil. – www.lex.uz
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturi (2017–2018 yillar). – Toshkent: Adliya vazirligi nashriyoti, 2017.